AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Mirzaliyeva Dilobar Sherali qizi, Guliston davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti
e-mail: Dilobar96@gmail.com\

Annotatsiya. Ushbu maqolada akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. O‘qituvchilarning shaxsiy va professional rivojlanishini ta’minlash, innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish, amaliy mashg‘ulotlar va mentorlik dasturlarini tashkil etish orqali o‘quvchilarni tarbiyalash va bilim berish jarayonini samarali qilish maqsad qilib olingan. Maqola, o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatidagi muhim tamoyillar va metodlarni tahlil qilib, ta ‘lim tizimining sifatini oshirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: akmeologiya, pedagogik faoliyat, o‘qituvchi tayyorgarligi, shaxsiy rivojlanish, innovatsion texnologiyalar, amaliy mashg‘ulotlar, mentorlik dasturlari, ta’lim metodlari, guruh ishlari;

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы совершенствования методики подготовки будущих учителей начальных классов к педагогической деятельности на основе акмеологического подхода. Цель – обеспечить личностное и профессиональное развитие педагогов, внедрить инновационные технологии в образовательный процесс, сделать процесс обучения и воспитания студентов более эффективным путем организации программ практического обучения и наставничества. В статье анализируются важные принципы и методы педагогической деятельности учителей и ставится цель повышения качества системы образования.

Ключевые слова: акмеология, педагогическая деятельность, подготовка учителей, личностное развитие, инновационные технологии, практическое обучение, программы наставничества, образовательные методы, групповая работа;

IMPROVING THE METHODOLOGY OF PREPARING FUTURE PRIMARY TEACHERS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY BASED ON THE ACMEOLOGY APPROACH

Abstract. This article considers the issues of improving the methodology for preparing future primary school teachers for pedagogical activity based on the acmeological approach. The goal is to ensure the personal and professional development of teachers, introduce innovative technologies into the educational process, and make the process of educating and imparting knowledge to students more effective by organizing practical training and mentoring programs. The article

analyzes important principles and methods in the pedagogical activity of teachers and aims to improve the quality of the education system.

Keywords: acmeology, pedagogical activity, teacher training, personal development, innovative technologies, practical training, mentoring programs, educational methods, group work;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktyabr O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5847-sonli Farmonida Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirish, iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta’lim muassasalariga talabalarni saralab olish mexanizmlarini ishlab chiqish to‘g‘risida belgilab qo‘yilgan. [1]

Akmeologik yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishning ilmiy asosi sifatida pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarining o‘zlarini ta’lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari, kasbiy faoliyatning yetuk shaxslari va faol sub ‘ektlari tarzida namoyon qilishlarini ko‘zda tutadi hamda ularning subekt va mutaxassis sifatida bosqichma-bosqich, uzluksiz o‘zini o‘zi rivojlantirishi va o‘zini o‘zi takomillashtirishi uchun sharoit yaratadi.

O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirish masalasi XXI-asrga kelib o‘z dolzarbligi bilan alohidamazmun kasb etmoqda, shu nuqtai-nazardan ham o‘qituvchilarni professional rivojlantirish, malaka oshirish va yangi pedagogik metodlarni tatbiq etish bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. Akmeologik yondashuv ta’lim tizimidagi bu o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda, o‘qituvchilarni eng yuqori natijalarga erishishga imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim tizimining muhim bo‘g‘inlaridan biri ekanligi bilan ajralibturadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatining samaradorligi, o‘quvchilarning bilim olish darajasi va shaxsiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirish va professional o‘sishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. [2]

Akmeologik yondashuv o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni qo‘llash zarurati ortib bormoqda. Akmeologik yondashuv orqali o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik metodlar va texnikalarga o‘rgatish, ularni yangi pedagogik yondashuvlarga tayyorlash masalasi dolzarb hisoblanadi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim jarayonini samarali va sifatli qilishga muhimrol o‘ynaydi. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarni shaxs sifatida shakllantiribgina qolmay, o‘quvchilarning ta’lim olishdagi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning kasbiy mahoratiga bog‘liq.

Akmeologik yondashuv yordamida o‘qituvchilar o‘z faoliyatini mukammallashtirib, o‘quvchilarga samarali ta’lim berish imkonini yaratadi, bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning ijtimoiy, intellektual va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy pedagogik fanlar o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish, yangi bilimlarni vatexnologiyalarni o‘zlashtirishni talab qiladi. Akmeologik yondashuv, o‘qituvchilarga o‘zfaoliyatini doimiy ravishda yangilab, o‘zlashtirishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim tizimining zamon bilan hamohang rivojlanishiga yordam berishi muhim nuqta hisoblanib muammoning dolzarbligini belgilab beradi.

Akmeologik yondashuvni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga tatbiq etish metodlari bo‘yichabirqancha psixolog hamda pedagoglar (L. I. Miroshnikova “shaxsiy rivojlanishning akmeologik yondashuvlari” haqida olib borgan, G. P. Ponomarenko akmeologik yondashuvni professional o‘sish va kasbiy faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishda qo ‘llagan, T. V. Shmeleva akmeologik yondashuvni o‘quvchilarningshaxsiy va kasbiy rivojlanishida qo‘llashni ilmiy asoslagan,V. A. Petrov akmeologiyaning o‘quvchilarnirivojlantirishda va pedagogik amaliyotda qo‘llashda ilmiy tadqiqotlar olib borgan, V. V. Davydov “Shaxs shakllanishi va rivojlanishidagi akmeologik yondashuv” mavzusidagi ishlari bilanmashhur, Venger, M. M. Verbitskiy, A. A. Shadrikov, S. I. Goykhman,
N. S. Filippovalartomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar insonning maksimal rivojlanishiga erishish, uningprofessional va shaxsiy rivojlanishini o ‘rganish bilan shug ‘ullanadigan fan sifatida, pedagogikava psixologiyaning integratsiyasi doirasida o ‘rganilmoqda.

Akmeologiya pedagogika fanida muhim o ‘rin tutadi, chunki u o‘qituvchilar va o‘quvchilarningprofessional va shaxsiy muvaffaqiyatlarini yuksaltirishga yordamberadi. Pedagogikakmeologiya o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini va pedagogik faoliyatdagi yuqori natijalargaerishishni ta’minlashga qaratilgan. Pedagogika va akmeologiya o ‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik:

Pedagogik rivojlanish: Akmeologiya, pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, pedagogikmalakalarini rivojlantirish va o‘qituvchilarni o‘z ishlarida yuqori natijalarga erishishga undaydi. Akmeologik yondashuv pedagogning rivojlanishini tashkillashtirishda asosiy o‘rin tutadi.

O‘qituvchining shaxsiy va professional rivojlanishi: Akmeologiya o‘qituvchilarning shaxsiy fazilatlari va pedagogik metodlarni mukammallashtirishda yordam beradi. O‘qituvchining pedagogik faoliyatidagi muvaffaqiyatlar akmeologik yondashuv orqali o‘rganiladi va qo‘llaniladi.

Ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish: Akmeologiya o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi aloqalarni va o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishda yordam beradi. O‘qituvchining yuqori darajadagi professionalligi nafaqat uning shaxsiy rivojlanishi, balki o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ta’lim olishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Akmeologiyaning pedagogik faoliyatda qo‘llanilishi:

- O‘qituvchilarni malaka oshirish: Akmeologiya yordamida o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish, ularning eng yuqori natijalarga erishishini ta’minlash mumkin.
- Pedagogik monitoring va baholash: Akmeologik yondashuv yordamida o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini baholash va ularning o‘quvchilar bilan ishlashdagi muvaffaqiyatini o‘lchash imkoniyati mavjud.
- Ta’limda sifatni oshirish: Akmeologiya ta’lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi, chunki bu yondashuv o‘qituvchilarning individual muvaffaqiyatlarini tahlil qilish va ular uchun eng yaxshi ishlash sharoitlarini yaratishga yo‘naltirilgan.
- Akmeologik yondashuvni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatiga tatbiq etish, o‘qituvchilarni rivojlantirish va ularning pedagogik faoliyatini sifatli qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Bu yondashuv orqali o‘qituvchilar o‘z mahoratlarini oshirib, o‘quvchilarga samarali ta’lim berishda yuqori natijalarga erishishlari mumkin. Akmeologik metodlar va tamoyillar pedagogik faoliyatning rivojlanishiga xizmat qiladi va o‘qituvchilarning shaxsiy o‘sishini ta’minlaydi.

Akmeologik yondashuvning asosiy tamoyillari

1. Shaxsiy Rivojlanish: O‘qituvchi sifatida shaxsiy rivojlanish va kasbiy o‘sishga e’tibor qaratish. Bu jarayonda o‘qituvchining individual xususiyatlari, qobiliyatlari va motivatsiyasi muhim ahamiyatga ega.

2. Maqsadli Yondashuv: Pedagogik faoliyatda aniq maqsadlar belgilash. O‘qituvchilar uchun maqsadlar nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta’minlashni ham o‘z ichiga olishi kerak.

3. Integratsiyalashgan Ta’lim: Turli fanlar va metodlarni birlashtirish orqali o‘quv jarayonini yanada samarali qilish. Bu o‘quvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

4. Refleksiya: O‘qituvchilar o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash orqali o‘zlarini takomillashtirishlari zarur. Refleksiya jarayoni pedagogik faoliyatda muhim rol o‘ynaydi.[3]

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni tayyorlash metodikasi:

1. Amaliy mashg‘ulotlar: Bo‘lajak o‘qituvchilarni amaliy mashg‘ulotlar orqali tayyorlash. Ushbu mashg‘ulotlar davomida talabalar pedagogik vazifalarni hal qilish, o‘quvchilar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. Innovatsion texnologiyalar: Zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish. Bu o‘qituvchilarga innovatsion metodlar va vositalar yordamida o‘quvchilarning qiziqishini oshirish imkonini beradi.

3. Mentorlik dasturlari: Tajribali o‘qituvchilar tomonidan yangi avlod o‘qituvchilariga mentorlik qilish orqali tajriba almashish jarayonini yo‘lga qo‘yish.

4. Guruh ishlari: Talabalarni guruhlarga bo‘lib, jamoaviy ishlarni tashkil etish. Bu usul o‘zaro hamkorlik, muloqot va muammolarni birgalikda hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa. Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish, ularning shaxsiy va professional rivojlanishini ta’minlaydi. Ushbu yondashuv orqali o‘qituvchilar nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarni tarbiyalovchi va ularning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo‘shuvchi mutaxassislar sifatida shakllanadilar. Ta’lim jarayonida zamonaviy metodlar va innovatsiyalarni qo‘llash orqali, o‘qituvchilar kelajak avlodni muvaffaqiyatli tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O ‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019-yil 8-oktyabr. PF-5847-sonli Farmoni

2. Azizxodjaeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.
– Toshkent: Moliya, 2003. – B. 592.

3. Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. –Toshkent: «Sano-standart» nashriyoti, 2017